

Antroponimlarning kelib chiqishi

Obobakirova Valizaoy Valisher qizi

*Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz tili o'qitishning
integrallashgan kursi kafedrasi o'qituvchisi*

Annotation: Maqolada tilshunoslikning eng asosiy bo'limi bo'lgan onomastikada antroponimlarning o'r ganilishi, uning leksik tizimdagi o'rni haqida izoh berilgan va mulohazalar bildirilgan. Onomastika va antroponim tushunchasining tilshunoslikda paydo bo'lishi tarixi bo'yicha ayrim ma'lumotlar ifodalangan va shuningdek, uning nutqdagi vazifasi belgilangan.

Аннотация: В статье поясняются и комментируются вопросы изучения антропонимов в ономастике, являющейся основным разделом языкоznания, и их место в лексической системе. Представлены некоторые сведения об истории возникновения понятия ономастика и антропонимы в лингвистике, а также определена их функция в речи.

Abstract: In the article, the study of anthroponyms in onomastics, which is the main branch of linguistics, and its place in the lexical system, are explained and comments are made. Some information on the history of the emergence of the concept of onomastics and anthroponyms in linguistics is presented, and its function in speech is also defined.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponim, antroponimika, toponimika, gidronimika, etnonimika, zoonimiya, kosmonimiya, antroponimist

Ключевые слова: ономастика, антропоним, антропонимия, топонимия, гидронимия, этнонимия, зоонимия, космонимия, антропонимист.

Key words: onomastics, anthroponym, anthroponymy, toponymy, hydronymy, ethnonymy, zoonymy, cosmonymy, anthroponymist

XX asrning 60-70-yillarida tilshunoslikda bir qancha yo‘nalishlar o‘z tadqiq obyektiga ega bo‘lgan mustaqil soha sifatida ajralib chiqo boshladi. Jumladan, frazeologiya va semasiologiya leksikologiyadan, so‘z yasalishini morfologiyadan ajratgan xolda mustqail yo‘nalish sifatida tadqiq qilich kuchaydi. Qayd qilingan davrda tilning atoqli otlar tizimini maxsus tadqiq qilishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan onomastika, onomasiologiya deb yuritiladigan yo‘nalish ham jadal rivojanish yo‘liga o‘tgan.¹ Oliy o‘quv yurtlarida onomastika bo‘limlari hamda onomastika markazlari ochildi. Ular milliy tillar leksik tizimdagi atoqli otlarni to‘plash va o‘rganishga kirishdi.²

Onomastika muammolarini tadqiq qilish o‘zbek tilshunoslari ham o‘tgan asrning 1960-yillaridan boshlandi. E.Begmatov o‘zbek antroponimiyasini o‘rganishga kirishdi. Hozirgi vaqtida o‘zbek tili onomastikasi tilshunoslikda ancha rivoj topgan soha hisoblanadi. Xususan, o‘zbek onomastikasining antroponimika, toponimika, gidronimika, etnonimika, zoonimiya, qisman kosmonimiya hamda onomastik lug‘atshunoslik tadqiq qilingan. Onomastika o‘rganadigan til birlklari onoma(onim), ya’ni atoqli otning ko‘rinishi va tiplaridir. Bular antroponim, toponim, zoonim, fitonim, kosmonim, teonim va boshqalardir. Keltirilgan terminlar onomastik birlıklarning tiplarini umumiyl nomlaydi. O‘tgan davr mobaynida o‘zbek antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlari, antroponimiyaning nominativ va motivativ asoslari antroponimlarni tadqiq qilishning lisoniy va sotsiolingvistik o‘ziga xos muammolari yuzasidan anchagina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, nomzodlik dissertatsiyalari va bir qator maqolalarida keltirilgan masalalar o‘rganilgan.³ Ayniqsa, antroponimlarni tadqiq qilishning amaliy muammolariga katta e’tibor berildi va bir qator kitoblar nashr qilindi. Onomastikaga bag‘ishlangan barcha tadqiqotlarda antroponimlar haqida xam so‘z boradi. Antroponim - asli grekcha so‘z bo‘lib, antro – odam+onim, ya’ni kishilarga berilgan atoqli otlardir. O‘zbek tilida bu termin o‘rnida ism, kishi ismi, odam otlari, kishi nomlari kabi terminlar

¹ Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi: Avtoref, dis.kand. filol.fan. Toshkent:Fan,1965.

² Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi. Bibliografik ko‘rsatkich. Namangan, 2008.

³ Begmatov E. Kishi ismlari imlosi. Toshkent: Fan, 1970

qo‘llaniladi. Antroponim ham onomastikani xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo‘lib, u o‘z ichiga aniq birliklarni oladi. Masalan, N.V.Podolskaya antroponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim, ginekonnm, patronim kirishini qayd qilgan.⁴

Biror tildagi antroponimlar majmui antroponimiya (huddi toponimiya, zoonimiya kabi) deb yuritiladi. Masalan, o‘zbek antroponimiyasi, qozoq antroponimiyasi kabi. Antroponimlarni tadqiq qiluvchi soha antroponimika deb nomlanadi va onomastikaning bu bo‘limi antroponimlarning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Antroponimika mutaxassisi antroponimist (o‘zbekcha antroponimshunos) deb yuritiladi. O‘zbek tilidagi kishi atoqli oti bo‘lgan quyidagi onomastik vositalar o‘zbek antroponimiyasining birliklaridir:

1. Ismlar - shaxsga berilgan ismlar.

2. Laqablar.

3. Taxalluslar.

4. O‘beklarda shaxsni nomlashning o‘tmishda mavjud bo‘lgan bazi shakllari (“qizi” “o‘g‘li”) yordamida nomlash.

5 . Shaxsni uning ismiga o‘tmish ajdodlarini nomini tiklash orqali atashning arabcha shakllari (“ibn”, “binni”) yordamida.

6. O‘tgan asrning 20-30-yillaridan rasmiy ravishda majburan qabul qildirilgan ruscha familiya va ota ismlari.

Manbalarda ham ism va ism qo‘yish haqida turli xil qarash va fikrlar mavjud. Bu haqida nomshunos Ernest Begmatov quyidagi fikrlarni aytib o’tadi:“Ism va ism qo‘yish odati - biror yakka shaxsni o‘zgalardan farqlash, ajratish ehtiyoji tufayli tug’ilgandir. Keyinchalik yuzaga kelgan va rasmiy tus olgan familiyalar, laqablar, ota ismlari, ajdodiy (pantronomik) nomlar va ularning turli-tuman ko‘rinishlari, kishini atashning boshqa xil shakllari va usullari ana shunday hayotiy ehtiyojning qonuniy mahsulidir”.

⁴ Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. С. 31.

Tilshunoslikning keying taraqqiyotida antroponimlarning ilmiy jihatdan o‘rganish qator ilmiy ishlarning ob’ekti bo’lib kelmoqda. Jumladan, E.T.Smirnov, keyinchalik N.S.Likoshin va rus sayyohi va etimologi V.F.Oshanin, turkiyshunos olim A.Samoylovichlar o‘zbekcha ismlarni to‘plash va ularni ruscha transliteratsiyada ifodalash masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.Shuningdek, N.Ostromov, A.Samoylovich, S.Oldenburg, V.YA.Nalivkin, M.Nalivkina kabi tilshunos olimlar o’zlarining ishlarida ham o‘zbekcha ismlar va laqablarining etimologiyasi, etnografiyasiga oid ayrim masalalar haqida fikrlar bayon qilganlar, ularning urfodati masalalari ham diqqat markazida bo‘lgan. S.Ibrohimov, M.Rahmonlar esa o‘zbekcha ismlar va familiyalarning imlosiga doir kuzatishlar olib borsa, N.S.Malitskiy esa Toshkent shahridagi mahalliy aholi ismlarini o‘rgangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi: Avtoref, dis.kand. filol.fan. Toshkent:Fan,1965.
2. Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi. Bibliografik ko‘rsatkich. Namangan, 2008.
3. Begmatov E. Kishi ismlari imlosi. Toshkent: Fan, 1970
4. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. С. 31.
5. www.ziyonet.com